

BOLALAR ADABIYOTINING FIDOYI OLIMI

Qurdoosh Qahramonov

filologiya fanlari doktori, professor

Bugungi kunda bolalar adabiyotining kichkintoylar hayotida tutgan o‘rnini teran anglagan jonkuyar olimlarimizdan biri Rahmatulla Barakayevdir. R.Barakayev o‘zbek bolalar adabiyoti tarixi va hozirgi o‘zbek bolalar adabiyotining taraqqiyot tamoyillari, adabiy aloqalar, tarjima tarixi va nazariyasi bo‘yicha taniqli mutaxassisdir. O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutida uzoq yillik samarali faoliyati davomida olim oddiy tadqiqotchidan fan nomzodi, professor darajasigacha, laborantlikdan institut ilmiy kotibi lavozimigacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tdi. O‘zining turli yo‘nalishlarda olib borgan tadqiqotlari bilan ilmiy jamoatchilik e‘tiborini qozondi.

Ayonki, mumtoz ijodkorlarimiz ijodida komil inson talqini, bolalar tarbiyasiga oid didaktik qarashlarni aks ettiruvchi asarlar ko‘plab uchraydi. Ularni nafaqat tadqiq etish yoki targ‘ib qilish, balki kichkintoylarimiz ma‘naviy mulkiga aylantirish uchun alohida bolalarbop nashrlarni amalga oshirish ham kunning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Rahmatulla Barakayev “Alisher Navoiy ijodida ma‘rifiylik va tarbiyaviylik”, “Alisher Navoiy ijodida barkamol avlod tarbiyasi”, “Alisher Navoiy ijodida insonparvarlik g‘oyalari” kabi maqolalarida buyuk bobokalonimiz ijodining ma‘rifiy-estetik xususiyatlarini tadqiq etadi. Ayni chog‘da mumtoz adiblarimizning bolalar tarbiyasiga oid asarlaridan namunalarni nashrga tayyorlab, “Bobolardan bolalarga” nomi bilan chop ettiradi. Bundan tashqari Ubayd Zokoniyning “Mushuk ila sichqon qissasi”, Hamza Hakimzoda Niyoziy asarlaridan saralangan “Aql chirog‘i”, Abdulla Avloniyning “Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islom” kabi kitoblarini ham nashrga tayyorlaydi, ularga so‘zboshi va izohlar yozadi. Shu orqali mumtoz ijodkorlarimizni bugungi bolalar olamiga oshno qiladi. Tarjimashunoslikda kam e‘tibor qaratilgan bolalar adabiyoti tarjimasiga oid izlanishlarida rus adabiyotidan qilingan ilk tarjimalar haqida so‘z yuritadi. “Badiiy tarjima – ijodkorlik”, “Rus bolalar adabiyotidan ilk tarjimalar tarixiga bir nazar”, “L.N.Tolstoy asarlarining o‘zbek tiliga ilk tarjimalari” kabi maqolalarida bolalar adabiyoti tarjimashunosligiga oid o‘z kuzatishlarini bayon etadi.

Rahmatulla Barakayev ilmiy izlanishlari, olib borayotgan tadqiqotlari ko‘ptarmoqli bo‘lsa-da, uning o‘zak qismini o‘zbek bolalar adabiyoti muammolari tashkil etadi. O‘tgan asrning saksoninchi yillarida bolalar adabiyoti bo‘yicha bo‘layotgan bahs-munozaralarda faol ishtirok etib, “Bolalikning tiyrak nigohi”, “Dilda darding bo‘lmasa...” kabi maqolalarini chop ettirdi. Bu maqolalarda bolalar

adabiyoti va tanqidchiligi oldida turgan dolzarb muammolar tilga olinadi. Jumladan, sho‘ro davrida bu adabiyot ham davr mafkurasiga hamohang tarzda bolalik olamini tasvirlashdan ko‘ra quruq pand-nasihatchilik xarakteridagi asarlar yaratishga ko‘proq e‘tibor qaratgani, adabiy tanqid bolalar adabiyoti bilan deyarli shug‘ullanmay qo‘ygani kuyunchaklik bilan o‘rtaga tashlanadi. Ayni shunday maqolalar saksoninchi yillar oxirlariga kelib umumadabiyotdagi kabi bolalar adabiyotiga oid qarashlarda ham evrilishlar jarayoni, yangicha fikrlashga intilishlar davri boshlanayotganidan dalolat beradi.

Olim tadqiqotlarining asosini o‘zbek bolalar adabiyotining paydo bo‘lish tarixi, shakllanishi, taraqqiyot tamoyillari va hozirgi adabiy jarayondagi o‘rni masalalari tashkil etadi. Uning “XX asr boshlaridagi o‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi” mavzuidagi nomzodlik tadqiqoti va shu asosda chop etilgan “O‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi” nomli monografiyasi yangi yo‘nalishdagi o‘zbek bolalar adabiyotining paydo bo‘lishi masalalariga bag‘ishlanadi. Olim monografiyada o‘zbek bolalar adabiyoti va kitobxonligi qadim tarixga ega ekani, uning ildizlari xalq og‘zaki ijodi namunalari borib taqalishi, mumtoz adabiyotimiz tarkibida bolalar tarbiyasiga oid pandnomalar ko‘plab yaratilgani va bular bolalar kitobxonligi doirasida asrlar davomida ma‘naviy-estetik vazifalarni bajarib kelgani, ayni paytda XX asr boshlarida yangi tarixiy-ijtimoiy sharoit bolalar uchun yangicha yo‘nalishdagi maxsus asarlar yaratishni taqozo eta boshlaganini ta‘kidlaydi. Avloniy, Hamza kabi ijodkorlar yaratgan darsliklarga kiritilgan bir qancha she‘rlarni bolalar adabiyoti namunalari sifatida tahlilga tortadi. Shu tariqa o‘zbek bolalar adabiyoti tarixi umumadabiyot tarixi bilan mushtarak ekani ilmiy jihatdan asoslanadi. Mazkur tadqiqotning ilmiy qimmatini ham shu kabi izlanishlar xulosalar bilan belgilanadi, albatta.

Rahmatulla Barakayevning “Jonajonim, she‘riyat” nomli risolasi o‘tgan asrning 80 – 90-yillar bolalar adabiyotidagi ijodiy-uslubiy izlanishlar tadqiqiga bag‘ishlangan. Risolada Tursunboy Adashboyev, Anvar Obidjon, Hamza Imonberdiyev, Abdurahmon Akbar, Dilshod Rajabov kabi shoirlar ijodini tahlil qilish asosida so‘nggi davr bolalar she‘riyatidagi g‘oyaviy-badiiy izlanishlar, poetik yangilanish jarayonlari ko‘rsatiladi. Bu davrga kelib bolalar she‘riyatida ham Vatan mavzusi yangicha yondashuvlar asosida yaratilayotgani T.Adashboyevning “Jo‘nataman quyoshni” “Oq-bura to‘lqinlari”, “Arslonbob afsonasi”, D.Rajabovning “Otamning bog‘i” kabi to‘plamlaridagi she‘rlar tahlili asosida ko‘rsatiladi. Bunda Vatan tushunchasi tabiat bilan uyg‘un tarzda tasvirlanishiga e‘tibor qaratiladi. Albatta, vatanni Ona tabiat bilan bog‘lab tasvirlash barcha davrga ham xosdir. Muallif bolalar she‘riyatidagi poetik yangilanish – qalamga olinayotgan obraz va detallar ramziy mazmunga ega ekanini ishonarli tahlillar bilan asoslab beradi. Shu

jihatdan D.Rajabovning qish fasliga bag‘ishlangan to‘rtliklari, “Qor” she’ri, A.Obidjonning “Kumush uy” turkumidagi “Yaylovini sog‘ingan qo‘y” kabi she’rlari xarakterlidir. R.Barakayev risolada so‘nggi davr bolalar she’riyatidagi shakliy-ustubiy yangilanishlardan biri sifatida “raqamli she’rlar”, “shaklli she’rlar” yaratilayotganini ta’kidlar ekan, iste’dodli shoirlar Dilshod Rajab va Abdurahmon Akbarning ayni shu turdagi she’rlarini tahlilga tortadi.

R.Barakayevning 2014-yilda nashr qilingan “Tursunboy Adashboyev fenomeniga bir nazar” (Akademnashr, hammualliflikda) monografiyasi adabiy va ilmiy jamoatchilik tomonidan iliq kutib olindi hamda oliy o‘quv yurtlarida bolalar adabiyoti fani bo‘yicha qo‘shimcha material sifatida o‘quv jarayoniga tatbiq etildi va 2017-yilda qayta nashr qilindi.

2019-yilda chop etilgan “Bolalar adabiyoti” o‘quv qo‘llanmasi (Buxoro: Durdona, hammualliflikda), uning qayta ishlangan va nashr etilgan varianti (Buxoro: Durdona, 2021; Toshkent: Shafolat Nur Fayz, 2022) 2021 – 2022-yillarda Oliy ta’lim vazirligi tomonidan oliy o‘quv yurtlarining Boshlang‘ich ta’lim va Maktabgacha ta’lim fakultetlarida ta’lim jarayoniga tatbiq etildi.

2009-yildan xalqaro va respublika ilmiy anjumanlarida o‘zbek mumtoz va hozirgi adabiyoti, xususan, bolalar adabiyotining turli dolzarb muammolaridagi ma’ruzalari bilan faol ishtirok etib keladi. Jumladan, Ozarbayjon, Turkmaniston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Turkiyada o‘tkazilgan ko‘plab xalqaro ilmiy anjumanlarda ma’ruza qilgan.

R.Barakayev ishlarida ilgari surilgan ilmiy qarashlar uning shogirdlari tomonidan muvaffaqiyat bilan davom ettirilmoqda. Shu kunga qadar uning ilmiy rahbarligida 3 nafar fan nomzodi va 5 nafar falsafa doktori tayyorlangan bo‘lsa, hozirda uning ilmiy rahbarligida 1 nafar tayanch doktorant va 1 nafar mustaqil izlanuvchi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi ustida ish olib bormoqda.

R.Barakayev adabiyotshunos olim va adabiy tanqidchi sifatida jamoatchilik ishlarida ham faol ishtirok etadi. U O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti ilmiy kengashi a‘zosi, 2018-yildan institut huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Dsc.02/30.12.2019.Fil.46.01 raqamli ilmiy kengash ilmiy kotibi, shu ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar a‘zosi, “O‘zbek tili va adabiyoti” hamda “Adabiy meros” jurnallarining tahrir hay’ati a‘zosi.

R.Barakayev ikki jildli “O‘zbek bolalar adabiyoti antologiyasi” (2006) da “Dunyoni beraylik bolalarga” maqolasining, “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” (2006) da “Quddus Muhammadiy”, “Kudrat Hikmat” maqolalarining muallifi sifatida ishtirok etib, mazkur nashrlarning yaratilishida o‘zining munosib hissasini qo‘shdi. Uning bolalar adabiyotiga oid maqolalari nafaqat respublikamizda, balki

Turkiya, Ozarbayjon, Turkmaniston kabi davlatlarning ilmiy jurnallarida ham chop etilgan. Olimning ushbu mehnatlari hukumatimiz tomonidan munosib taqdirlanib, u 2000-yilda 2-darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni bilan mukofatlanadi.

Bolalar adabiyotining tolmas tadqiqotchisi va jonkuyari Rahmatulla Barakayev ayni balog‘at yoshida. Biz olimning ilmiy izlanishlarida kuch-quvvat, ulkan yutuqlar tilaymiz.